

**ISLOMDA GAROV MASALALARINING KLASSIK VA
ZAMONAVIY TALQINI
CLASSICAL AND CONTEMPORARY INTERPRETATIONS OF
PLEDGE (RAHN) IN ISLAM
КЛАССИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ
ЗАЛОГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИСЛАМЕ**

IRODA NOROVA,

*MASTER'S DEGREE STUDENT IN THE SPECIALTY OF
ISLAMIC ECONOMICS AND FINANCE*

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

A.QADIRI STR. 11, 100011, TASHKENT, UZBEKISTAN

E-MAIL: IRODANOROVA18@GMAIL.COM

KIRISH

Rahn yoki garov tushunchasi zamonaviy islom moliyasi amaliyotida Shariatga muvofiq ta'minot vositasi sifatida keng qo'llanilib, qarzlar yoki boshqa moliyaviy majburiyatlarni ribodan holi tarzda kafolatlash imkonini beradi. Rahn risklarni boshqarish va mitigatsiya qilishda muhim instrument hisoblanib, garov beruvchiga ishonch va mulk huquqi asosida moliyalashtirish olish imkonini taqdim etadi. Bugungi kunda rivojlanayotgan islom moliya tizimi sharoitida rahn moliyaviy bitimlarning ishonchliligi va ishtirokchilarning huquqiy himoyasini ta'minlashda dolzarb ahamiyatga ega.

Islom tijorat huquqida rahn masalasi, ayniqsa, Qur'oni Karimning Baqara surasi 283-oyatida zikr qilingan bo'lib, bu oyat rahnni ishonch asosidagi moliyaviy munosabatlarni mustahkamlovchi vosita ekanligini tasdiqlaydi (M.S.M. Yusuf, 2013). Rahnni ilk rasmiy huquqiy shakli 19-asrda Usmoniylar davlati tomonidan qabul qilingan "Majalla al-Ahkam al-Adliyya" fuqarolik kodeksida o'z aksini topgan (Tyser, Demetriades and Effendi, 1901). So'nggi yillarda islom moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlarning

diversifikatsiyalashuvi rahn tushunchasini zamonaviy talablarga moslashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu ehtiyojga javoban, Islom moliyasi muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan rahn shartnomasining zamonaviy qo'llanilishini tartibga soluvchi 39-sonli Shariat standarti ishlab chiqilgan.

Ushbu maqola “Majalla al-Ahkam al-Adliyya”dagi rahnning klassik modeli va AAOIFI 39-sonli Shariat standartidagi zamonaviy talqinini tizimli ravishda taqqoslash orqali ushbu sohadagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Tadqiqotda asosiy fiqhiy tafovutlar, tuzilmadagi o'zgarishlar va ularning islom moliya huquqining shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot obyekti va metodologiyasi

Maqolada “Majalla al-Ahkam al-Adliyya”dagi garovga oid qoidalar va AAOIFI 39-sonli “Rahn” Shariat standartida bayon etilgan zamonaviy talqin o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Taqqoslovij yondashuv garov shartnomasining tuzilishi, garov obyektining tabiati, egalik shakllari, tomonlarning huquq va majburiyatlari kabi mezonlar asosida amalga oshiriladi. Tahlil har ikki manbaning matnlariga asoslanib, ularning mohiyatini aniqlashtirish va o'zaro farqlarni asosli ravishda ko'rsatishga qaratilgan.

1. Garov shartnomasining tuzilishi

“Majalla al-Ahkam al-Adliyya” garov shartnomasini qat'iy fiqhiy qoidalarga asoslangan holda tartibga soladi, unda garov obyektining jismoniy mavjudligi, aniq qiymati va garov beruvchining to'liq egalik huquqi talab qilinadi. AAOIFI standarti esa zamonaviy moliyaviy operatsiyalarga moslashgan holda, shartnoma tuzilishida moslashuvchanlikni ta'minlaydi va nomoddiy aktivlarni ham garov sifatida qabul qiladi.

1-rasm. Garov shartnomasining tuzilishi bo'yicha taqqoslama tahlil natijalari

(Rasmda garov shartnomasining tuzilishidagi klassik va zamonaviy yondashuvlarning asosiy farqlari grafik shaklda tasvirlanadi.)

2. Garov obyektining tabiati

Klassik yondashuvda garov objekti faqat jismoniy, aniq qiymatga ega va garov beruvchi tomonidan to'liq egalik qilinadigan mulk bo'lishi shart. AAOIFI standarti esa nomoddiy aktivlar (masalan, shartnomaviy huquqlar, daromad oqimlari) va ijaraga olingan mulklarni ham garov sifatida qabul qiladi.

1-jadval. Garov obyektining tabiati bo'yicha taqqoslama

Yondashuv	Majalla al-Ahkam Adliyya	AAOIFI 39-son Shariat standarti	Taqqoslovii xulosa
Garov objekti	Jismoniy, aniq qiymatga ega, to'liq egalikdagi mulk. Hayoliy yoki mavjud bo'lmagan mulklar garov bo'lmaydi.	Jismoniy va nomoddiy aktivlar (shartnomaviy huquqlar, ijara huquqlari). Shariatga muvofiq halol va qiymatga ega bo'lishi kifoya.	Klassik yondashuv qat'iy shartlarga ega bo'lsa, AAOIFI zamonaviy ehtiyojlarga mos moslashuvchan yondashuvni qo'llaydi.

3. Qabd (egalik) talablari

“Majalla”da qabd jismoniy egalik shaklida talab qilinadi, ya'ni garov objekti garov oluvchiga topshirilishi shart. AAOIFI standarti esa huquqiy (konstruktiv) egalikni ham tan oladi, masalan, ro'yxatga olish yoki hujjatlashtirish orqali. Bu zamonaviy operatsion qulayliklarni ta'minlaydi.

2-rasm. Qabd talablari bo'yicha Venn diagrammasi

(Rasmda klassik va zamonaviy yondashuvlardagi o'xshashlik va farqlar Venn diagrammasi orqali tasvirlanadi.)

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

Klassik yondashuvda garov oluvchi garovni qarz to'liq to'langunga qadar ushlab turish huquqiga ega, lekin garov objekti foydasidan ruxsatsiz foydalana olmaydi. AAOIFI standarti garov oluvchiga bozor qiymatida haq to'lash orqali garovdan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvda garov

shartnomasi tomonlarining huquq va majburiyatlari aniqroq tartibga solinadi.

MUHOKAMA

Taqqosloviy tahlil natijalari rahn institutining klassik va zamonaviy talqinlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqladi. Har ikki yondashuv rahnni ishonch asosidagi ta'minot vositasi sifatida tan olsa-da, zamonaviy yondashuv jahon moliya tizimining evolyutsiyasi va huquqiy normalarining rivojlanishi natijasida kengroq qamrovga ega. Xususan:

- **Garov obyektı tabiatida:** Klassik yondashuv faqat moddiy aktivlarni qamrab olsa, AAOIFI nomoddiy va ijaraga olingan aktivlarni ham qabul qiladi.

- **Qabd masalasida:** Klassik yondashuv jismoniy egalikni talab qilsa, zamonaviy yondashuv huquqiy egalikni maqbul deb topadi.

- **Foydalanish huquqida:** Klassik model kreditorning garovdan ruxsatsiz foydalanishini cheklasa, AAOIFI bozor qiymatida foydalanishga ruxsat beradi.

Ushbu tafovutlar islom moliyasining zamonaviy ehtiyojlarga moslashuvi va fiqhiy tafakkurdagi dinamik rivojlanishni aks ettiradi. AAOIFI standartlari klassik fiqhiy tamoyillarga asoslangan holda, zamonaviy moliyaviy amaliyotlarga mos huquqiy aniqlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Ushbu ilmiy maqolada islom tijorat huquqining muhim instrumentlaridan biri - rahn tushunchasining klassik yondashuvi - "Majalla al-Ahkam al-Adliyya" va zamonaviy normativ yondashuvi - AAOIFI 39-son Shariat standarti o'rtasidagi taqqosloviy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot davomida garov shartnomasining tuzilishi, garov obyektı tabiatining tafovutlari va o'xshash jihatlari, egalik (qabd) talablari hamda garov shartnomasi tomonlarining huquq va majburiyatlari kabi muhim mezonlar asosida har ikki manbaning yondashuvlari solishtirildi.

Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki, AAOIFI tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, jumladan rahn masalalariga bag'ishlangan Shariat standarti ko'proq boyitilgan tafsilotlar va huquqiy mexanizmlar orqali bugungi kungacha rivojlanib va takomillashib kelayotgan islom moliya institutlari

faoliyat jarayonlarini tartibga solishda va ular amaliyoti davomida yuzaga kelayotgan masalalarga shar'iy yechimlar berishda asosiy xizmat qilayotganlar safida hisoblansada, ularning asosiy tamoyillari klassik fiqhiy manba, jumladan "Majalla al-Ahkam al-Adliyya" asariga tayanib, aynan ushbu asar garov instrumentining huquqiy strukturasi va fiqhiy asoslarini tizimli ravishda bayon qilgan ilk kodifikatsiya sifatida zamonaviy yondashuvlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Shu jihatdan, ushbu ilmiy maqola islom moliyasida fiqhiy yondashuvlar va zamonaviy normativ hujjatlar o'rtasidagi huquqiy uzviylikni anglash, shuningdek, garov shartnomasining takomillashuvi va tatbiq doirasining kengayishini tushunishda nazariy asos bo'la oladi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati

1. AAOIFI (2021). Shari'ah Standard No. 39: Rahn (Pledge). In: Shari'ah Standards. 3rd ed. Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions, pp. 655–672.
2. Ottoman Empire (1876). *Majalla al-Ahkam al-Adliyya*. Istanbul: Official Gazette of the Ottoman Empire.
3. Yusuf, M.S.M. (2013). Tafsiri Hilol. 1-jild: Baqara surasi tafsiri. 3rd ed. Tashkent: Hilol-Nashr. pp. 590–600.
4. Tyser, C.R., Demetriades, D.G. and Effendi, I. (1901). The Mejlle: Being an English Translation of Majallah el-Ahkam-i-Adliya and a Complete Code of Islamic Civil Law. Lahore: The Law Publishing Company.
5. Bank Negara Malaysia (2010). Shariah Resolutions in Islamic Finance. 2nd ed. Kuala Lumpur: Bank Negara Malaysia, pp. 63–66.
6. Saeed, A. (2004). Rahn (Pledge) as a Security in Islamic Law. Arab Law Quarterly, 19(3), pp. 249–266.
7. Usmani, M.T. (2002). An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Idaratul Ma'arif.
8. Thani, N.N., Abdullah, M.R. and Hassan, M.K. (2003). Law and Practice of Islamic Banking and Finance. Kuala Lumpur: Sweet & Maxwell Asia.